

DOI: 10.5281/zenodo.16265412

Link: <https://zenodo.org/records/16265412>

DETEKTIV JANRI PAYDO BO'LISHIDAGI OMILLAR

Jo'raboyev Ilhomjon Botiron o'g'li

Namangan Davlat Universiteti 10.00.04 – "Yevropa, amerika va avstraliya xalqari tili va adabiyoti" yo'nalishi 1-kurs talabasi, ilxomjonjoraboyev2@gmail.com

Annotatsiya – Ushbu maqolada detektiv janrining dunyoga kelishiga sababchi bo'lgan bosh omillar ko'rib chiqiladi. Muallif "Detektiv janri qanday vujudga keldi?" savoliga javob topishga urinadi va detektiv asarlarning tarixiy ildizlarini birma-bir ko'rib chiqadi. Ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi, texnologik yutuqlar, sud tizimi va jinoyatchilarning uddaburonligi yangi asr adabiyotiga yo'l ochadi.

Kalit so'zlar – detektiv, detektiv janr, klassik detektiv, modernistik detektiv, postmodernistik detektiv, realizm, induksiya, jinoyat, kriminalistika

KIRISH

Inson taraqqiy etgan sari uning yovuzliklari ham taraqqiy eta boshlaydi. Oddiy insonlarning haq-huquqlari toptaliverishi (masalaning bir tomoni – oddiy insonlar zodagon va oliy nasab kishilarga nisbatan), jamiyatning tubanlashuvi (masalaning ikkinchi tomoni – madaniyatning inqirozi – zodagon va oliy nasab, oliy maqom kishilarning tubanlashuvi), o'z manfaatlari yo'lida har qanday jirkanch, qabih ishga qo'l urishlari, hadeganda ushbu muammoga duch kelishlari adabiyotchilarni ushbu masala haqida jiddiyroq fikr yuritishlariga turtki bo'ldi. Bu muammolar azaldan mavjud bo'lgan, ammo adabiyotchilar bunga endi boshqacha – muhim, hattoki siyosiy, ijtimoiy, psixologik voqeilik sifatida yondashishni boshlaganlar. Mana shunday ijtimoiy tengsizlik yoki madaniy inqiroz, qo'polroq qilib aytganda insonlarning hayvonlashuvi davrida detektiv janri barg yoza boshladi (agar uni gul deb atash mumkin bo'lsa). Detektiv janrni – kriminalistik badiiy adabiyotning gultoqi deyish mumkin. Fransuz ma'rifatpari Jan Jak Russo ham o'zining "Emil yoki tarbiya to'g'risida" va "Iqrorнома" badiasida taraqqiyotga bo'lgan ishonchni tanqid qiladi: shahardagi hayot va ilmlar insonda mavjud bo'lgan yaxshi va tabiiy sifatlarni buzadi, deydi. U yomonlik – sivilizatsiyaning o'zida, deb ishonardi⁴². Balki aynan mana shu vaziyat detektiv janrining paydo bo'lishidagi ko'rinmas kuch vazifasini bajargandir. Insonlar Falesgacha ham, undan keyin ham mavjud edilar, lekin faqatgina u barcha mavjudotlarning gultoqi bo'lmish inson mana shunday cheksiz borliqda yaralish sabablarini qidira boshlaydi. Birinchi sudyadan oldin ham haqiqat bo'lgan, ammo unga bo'lgan qarashlar o'zgargani bois uning yangi mohiyati ochilib bordi va yangicha o'lchamlari shakllana bordi. Detektiv janrining ham adabiyot sahnida vujudga kelishini shunday qiyoslash mumkin. Adabiyotning detektiv janrigacha bosib o'tgan yo'li ko'proq shohonalik, dabdababozlik va shohlar hayotini ulug'lash – madhiyabozlikdan

⁴² Skirbekk, G., Gilye, N. Falsafa tarixi. Oliy o'quv yurt uchun o'quv qo'll. / Rus tilidan tarjima.: V. Kuznetsov. – T.: «Sharq», 2002. – 720 b. (385-betga qarang)

iborat edi. Ularda tasvir etilayotgan hayot bir tomonlama – sun'iy, haqiqiy hayotdan mutlaqo yiroq edi. Oddiy insonlar go'yoki yo'qdek, ularning muammolari bo'lmagandek, go'yoki butun olam oliy sinf tashvishi bilan gir aylanayotgandek edi. Aslida esa tabiatdagi eng kichik zarra ham o'z qiymatiga ega. Bir so'z bilan aytganda, insonlar adabiyotdagi soxtalikdan charchadi, shu bilan birga adabiyotchilar ham. XIX asrda yetishmayotgan kuch – realizm adabiyotga ham kirib keldi. Detektiv janr esa realizmning gulg'unchasi sifatida yashnay boshladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jinoyat yoki qilmishlar antik davr adabiyotlarida ham, Uilyam Shekspirning shoh asarlarida ham bosh mavzu sifatida qo'llanilib kelgan. Detektiv unsurlari bugun paydo bo'lib qolmagan, u uzoq o'tmishga ega. O'rta asrlarda yashab ijod qilgan dramaturg qiroli Uilyam Shekspirning inson fojeasi haqidagi barcha zamonlarning shoh asari bo'lmish Hamletda detektiv unsurlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Asarda qotillik sodir etiladi va jinoyat tabiiy o'limdek ko'rinishi uchun, oshkora bo'lmagan qotillikdan foydalaniladi. Bu shubhasiz jinoyat edi. Shahzoda Hamletning amakisi Klavdiy toj-u taxtga egalik qilish uchun akasini uxlab yotganida qulog'iga zahar quyib, shu yo'l bilan uni o'ldiradi, ammo bog'chada uni ilon zahri bilan o'lim topganligi haqida Daniya ahlini ishontiradi, albatta shahzoda Hamletdan tashqari. Shundan keyin, azasiga ikki oy ham to'lmasdan akasining xotini, ya'ni Hamletning onasi – toj-u taxt malikasiga uylanib mamlakatga hukmdorlik qila boshlaydi. Shahzoda Hamlet ham otasining o'limidan, ham onasining otasining jasadi sovimasdan amakisiga turmushga chiqqaniga aslo chiday olmadi va yaqinlaridan alamzada bo'lib, hayotdan ko'ngli soviydi. Onasini buzuvchilikda ayblaydi. Kunlardan bir kun Hamletning mulozimlari Vittenbergda uning otasiga o'xshash arvohni ko'rganliklarini, ammo u bilan suhbat qura olishmayotganliklarini aytishadi. Hamlet esa haqiqatga yetishish uchun otasining arvohi bilan ko'rishgani poyloqda turadi. Otasining arvohi sovutda boshdan oyoq qurollangan holda Hamletning qarshisida paydo bo'ladi va Hamlet esa undan zohir bo'lish sababini holi-joniga qo'ymay so'rayveradi. Arvoh shahzodaning otasi ekanligini va qasosdan ruhi halovat topmayotganligini aytish uchun kelganligini va unga, ya'ni o'g'liga o'limining sirini fosh etadi. Quyidagi parchada Hamletning otasi Daniya qiroli arvoh ko'rinishida haqiqatni qanday oshkor etgani:

Arvoh

Azmingni ko'rib turibman.

*So'zlarimdan qonlaring jo'shga kelmasa –
So'yla-chi, kim bo'larding? – "Leta"da ya'ni –
Unutilish daryosi loyida o'sgan –
Baq to'ni bo'larding beburd va sassiq.
Endi, Hamlet, quloq sol, gap tarqaldiki –
Go'yo meni bog'chada uxlaganimda
Ilon chaqib o'ldirgan. Daniya ahli
Bu soxta afsonaga aldanib ketdi.
Endi bilgin, ey mening olizot o'g'lim,
Ilon – otang qotili, - bugun bemalol –*

Uning tojin kiyibdur.⁴³

Albatta Hamlet arvoҳning soʻzlariga shunchaki ishonib qolmaydi, chunki u vasvasaga soluvchi bir iblis, zilli-shayton boʻlishi ham mumkin edi. Yanada ishonch hosil qilishi uchun u oʻzi uchun isbot qidiradi. Kunlardan bir kun saroyga sayyor aktyorlar truppasi tashrif buyuradi, bunday qulay imkoniyatni qoʻldan boy bermaslik maqsadida shahzoda bir ayyorlik ishlatadi va eng yaqin mulozimi va doʻsti Horatsioga bu haqida quyidagicha topshiriq beradi:

Hamlet

*Qirol uchun tomosha qoʻyilar bu kech,
Otamning oʻlimini senga aytuvdim.
Tomoshada bir sahna oʻshanga oʻxshar,
Sendan soʻrov: u sahna boshlangach hamon –
Mijja qoqmay kuzatgin amakimni sen.
Ehtimol, u sahnani koʻrgan amakim,
Ixtiyorsiz bildirib qoʻyar gunohin.
Agar shunday chiqmasa, demak u arvoҳ
Iblisning oʻzi ekan, miyamni esa –
Vulqonning oʻchogʻidek tutgan is-tutun
Vaʼda aniq, soʻrayman, qunt bilan qara.
Men ham unga qarayman, soʻngra ikkimiz
Tahlil qilib chiqarmiz koʻrilganlarin.⁴⁴*

Qirol Klavdiy ham oʻz navbatida shahzoda Hamletni mahv qilish uchun bir necha makr yoʻllarini oʻylab topadi. Qirol Klavdiy otasining oʻlimini unutsin deb shahzodani Angliyaga oʻlpon yigʻish maqsadida joʻnatayotganligini bahona qiladi va uning qoʻliga bir xat tutqazadi. Aslida esa, xatda shahzodaning Angliyaga qadam qoʻyishi bilanoq oʻldirilishi rejalashtirilgan edi. Xayriyatki, shahzoda Hamlet bu aldovlarga chap berib, eson-omon oʻz ona yurtiga qaytadi. Ikkinchi bir nayrang, inson tubanligining eng oliy koʻrinishi boʻlib, shum qirol Klavdiy oʻz gʻaraz niyatini Daniya vaziri Poloniyning oʻgʻli Laert (aslida Laertus) orqali amalga oshirmoqchi boʻladi va Laertni shahzoda Hamletga qarshi gij-gijlaydi. Laertga nisbatan Hamletning hurmati azaldan baland boʻlgan, chunki u nafaqat sevgilisi Ofeliyaning akasi, balki haqiqatda kam sonli olijanob kishilardan biri ham edi. Laertning qalbi qabohatga toʻlishib, fitnaga sherik boʻladi. Shum qirol Klavdiy shahzoda Hamletni Laert bilan qilichbozlikda teng sharoitda kuch sinashishlarini taklif qiladi, ammo Laertning qilichining damiga zahar surtib qoʻyishadi. Har ehtimolga qarshi, qadahni ham zahar bilan ogʻulashadi. Bu yoʻl orqali qirol Klavdiy oʻzining ikki karra pastkash insonligini isbotlaydi. Quyida qirol Klavdiy va Laertning xufyona suhbatı:

Qirol

*Shu gap toʻgʻri. Qotilga muqaddas joy yoʻq.
Oʻch olishning makoni, sarhadi boʻlmas.*

⁴³ Vilyam Shekspir. Hamlet. Ruschadan Maqsud Shayxzoda tarjiması. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1983. 48-bet.

⁴⁴ Vilyam Shekspir. Hamlet. Ruschadan Maqsud Shayxzoda tarjiması. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1983. 119-bet.

*Siz, azizim, hozircha uyda o'tiring.
Hamlet o'zi eshitsin kelganingizni.
Haligi fransuzga o'xshab, odamlar
Sizni maqtab yuborsin burchak-burchakda.
Keyin garov tikamiz har qaysingizga.
U nayrangni bilmaydi, o'zi beparvo.
Tig'larni yo'qlamaydi, u to'g'ri odam.
Siz o'yin qiziganda, bir fursat topib
O'tmas qilich o'rniga keskin tig' olib
Otangizning qonini olasiz hamon.*

Laert

*Juda yaxshi. Men yana qilich damiga
Biron narsa suykayman. Menda bir moy bor.
Uni agar pichoqqa sal surkab qo'ysang,
O'sha pichoq barmoqni kesguday bo'lsa,
Kishini halokatdan qutqaza olmas –
Dunyodagi bor darmon, dori-yu ma'jun.
Bu zaharni qilichga surkab qo'yayin,
Men Hamletni ozgina zadalasam bas.
Undan keyin ish tamom⁴⁵.*

Voqealar so'nggida malika Hertruda nogahon zahar qo'shilgan sharobni ichib, qonga belanib jon beradi. Shahzoda Hamlet ham, Laert ham zahar surkalgan qilichdan yaralanishadi, ammo o'limidan avval Laert bu jirkanch xiyla ortida qirol Klavdiy turganini va qalbidagi nafratdan voz kechganligini aytadi. Haqiqat ochilgach, shahzoda Hamlet qirolni qilich bilan chopib tashlaydi va qirol tayyorlagan zaharni o'ziga ichiradi. Afsuski, qilichning dami zaharlangani bois shahzoda Hamlet ham jon taslim qiladi. Voqealar mana shunday o'z nihoyasiga yetadi.

Albatta, Hamlet jinoyatni fosh etish uchun aqliga tayanib ish ko'rmaydi yoki aqlini yorqin namoyon qila olmaydi, aql ko'zini hissiyot hiralashtiradi va dalillarga asoslanmaydi. Unga ilmiylik yetishmaydi. U ko'proq aqldan ko'ra hissiyotlari bilan qaror qabul qilishni xush ko'radi. Adolatni sud emas, o'zi o'rnatishga intiladi. Balki o'sha davrlarda insonlarning fikrlash darajasi va dalillar bilan ishlash ko'nikmasi past, sud tizimining isloh etilmaganligi yoki asarlarning o'ziga jalb qiluvchi tomoni aynan hodisalarning mistik yoki ilohiylashtirilishi bilan belgilanganidadir. Ilmiy tushunchalar, ilmiy atamalar yoki ilmiy izlanishlar o'sha davr kishilari uchun bir shaytoniy yo'l hisoblanib, yozuvchilarni ham din peshvolari bilan hisoblashlariga to'g'ri kelgandir yoki bu or-nomus masalasi bo'lgani uchun omma oldida bu mavzularni ko'tarish isnod bo'lgandir. Shunga qaramay, jinoyat va qurbonlarning mavjudligi, inson halokati va uning siriligi detektiv janrining ayrim muhim jihatlarini yodga soladi.

Yuqoridagi asar eski dunyoning namunalaridan biridir xolos, o'zida detektiv

⁴⁵ Vilyam Shekspir. Hamlet. Ruschadan Maqsud Shayxzoda tarjiması. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1983. 196-bet.

unsurlarni saqlovchi asarlar bisyordir; ular eramizdan avval ham, keyin ham uchrab turadi.

Detektiv janrining rivojlanishidagi asosiy motivlardan biri ijtimoiy va madaniy sohalaridagi inqiloblardir. Mauritsio Basili tomonidan "Jinoyatni hikoya qilish: anglofon va germanofon detektiv adabiyotining rivojlanishi" mavzusida yozilgan ilmiy ishida detektiv janrining shakllanishi quyidagicha tasniflanadi: "Bu xususiyat, ayniqsa, janrning XIX asrda burjua huquqiy davlatining paydo bo'lishi bilan bog'liq ilk shakllaridayoq yaqqol seziladi – unda ratsionalizm, tartib va shaxsiylik ustuvor o'rin egallagan edi. Aynan shu tarixiy davrda huquqiy mavzulardagi munozaralar gazeta, jurnal va kitoblar orqali keng tarqaladi. Sud jarayonlari haqida ko'plab nashrlarning paydo bo'lishi aholining katta qiziqishiga sabab bo'lgan. Aynan shu sharoitda jinoyat huquqi tizimi va sud yuritish tartiblarida sezilarli o'zgarishlar ro'y bergan: yangi tizimlar joriy etiladi, eski tartiblar bekor qilinadi. Davlat va xususiy tergov agentliklari tuziladi, politsiya tuzilmalari kengaytiriladi, ilg'or tergov metodlari ishlab chiqiladi. Ushbu o'zgarishlarning eng muhim natijalaridan biri – qiynoqning bekor qilinishi bo'ldi. Endilikda aybni tan oldirish uchun dalil to'plash zarur bo'ladi: guvohliklar, izlar, barmoq izlari tahlili, infraqizil nurlar, mikroskoplar va poligraflardan foydalanish kabi tergov usullari shakllanadi. Bu jarayon keyinchalik alohida ilmiy yo'nalishga – kriminologiyaga – aylangan bo'lib, jinoyatlarning oldini olish va ularni fosh etishda davlat va xususiy tashkilotlarning tayanchiga aylanadi⁴⁶."

Inson tafakkur etmay yashay olmagan kabi, jinoyat qilmasdan ham kun kechira olmaydi. Adolat va jinoyat bari nisbiy tushunchalar bo'lgani uchun, ularning taqdirini sud hukmiga havola qilinadi. Sud tizimi nafaqat jamiyatni tartibga solishda, balki XIX asrgacha noma'lum bo'lgan adabiyotning detektiv janrini tug'ilishiga ham xizmat qildi. Ushbu janrda muvaffaqiyatga erishgan barcha adiblar sud jarayonlarida bevosita ishtirok etishgan, jumladan Artur Konan Doyl ham umri davomida jinoyatchilarning sud ishlari chop etilgan gazetalarni to'plaganligini inkor etmaydi. Konan Doyl real hayotdagi jinoyat ishlarida ishtirok etgan va uning sa'y-harakatlari natijasida nohaq sudlangan kishilar oqlangan, jumladan Jorj Edalji ishi: u 1903-yilda uy hayvonlarini shafqatsizlarcha o'ldirganlikda ayblanib, yetti yil og'ir mehnat jazosiga hukm qilinadi. 1906-yilda u dalillarsiz ozod qilinadi, ammo oqlanmaydi. Shunda u Konan Doylga murojaat qiladi. 1907-yilda u nihoyat oqlanadi. Oskar Sleyter ishi: u 1908-yilda qotillikda ayblanib, umrbod qamoq jazosiga hukm qilinadi. Konan Doyl bu ishga 1912-yilda aralashadi, biroq faqat 1927-yilda Sleyter oqlanadi⁴⁷.

Detektiv janr paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlarining birinchi davri – XIX asrning o'rtalaridan XX asrning o'rtalarigacha bo'lgan bosqichni o'z ichiga oladi. Bu detektiv janrining klassik davridir; ikkinchisi – detektivning modernistik davri: bu davr o'tgan asrning 1950-1970-yillarni qamrab oladi; uchinchisi – detektiv janrning postmodernistik davri; janr taraqqiyotidagi ushbu so'nggi bosqich XX asrning 1970-

⁴⁶ Narrare il crimine: gli sviluppi del poliziesco anglofono e germanofono. Maurizio Basili. Università degli Studi "G. D'Annunzio" Chieti-Pescara (maurizio.basili@unich.it) (8-bet)

⁴⁷ М. А. Жиркова. Детектив: История возникновения и развития жанра. Часть 1. Зарубежный детектив. Учебное пособие. 36-bet

yillaridan boshlab shakllangan bo‘lib, hozirgi kungacha davom etmoqda.⁴⁸

Klassik detektiv asarlar aql kuchi bilan yechiladigan jumboq o‘yini atrofiga quriladi. Hikoyachi (roviy ham deb yuritildi) asar boshidan voqealar rivojini tushuntib boradi, protagonist (asarning bosh ijobiy qahramoni, odatda erkak) aqlga tayanib jinoyatni fosh etadi. Detektiv hikoyaning kompozitsional o‘ziga xosligi qahramonlarning ikkilik qarama-qarshiligidadir: yaxshi (izquvar va uning yordamchisi) va yomon (jinoyatchi va uning gumashtasi). Modernistik detektiv asarlarda jumboq sohib yuboriladi va yetarlicha chalkashlik hosil qiladi. Sirni ochish uchun endi yaxshigina deduktiv qobiliyatning keragi yo‘q, faqatgina jinoyatning kaliti bo‘lgan kerakli nuqtaga e‘tibor berishning o‘zi kifoya, odatda jumboq ikkinchi darajali obrazlarga ko‘rinib turadi: bu detektivning do‘sti yoki yordamchisi bo‘lishi mumkin. Ayollar bu detektiv asarlarda dominantlikka intilishadi, yaxshi va yomon obrazlarda teng gavdalanishadi. Jinoyat qurollari borgan sari rang-barang va vahima uyg‘otadi. Postmodern detektiv asarlarda jinoyat manzarasi ancha noaniq bo‘ladi va u unchalik muhim emas. Asarda jinoyatning turli talqinlari va qahramonlarning his-tuyg‘ulari asosiy o‘ringa chiqadi. Bu davr detektiv romanining eng xarakterli xususiyati – bu polifoniyadir: asar syujetida albatta tarixiy, falsafiy, sarguzasht yoki ilmiy-fantastik romanlardan parchalar va psixologik elementlar uchraydi. Detektiv janriga xos bo‘lgan adolatni tiklash istagi yo‘qoladi, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi farq esa shartli yoki yolg‘on bo‘lib qoladi. Asardagi markaziy qahramon – bu oddiy inson bo‘lib, u o‘z vazifasini bu dunyoda amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi his-tuyg‘ular va muammolar to‘plamiga egadir. Postmodern detektiv hikoyasidagi voqealar o‘zini izlash va anglash jarayoni atrofida rivojlanadi⁴⁹.

Aynan shu yillar davomida kishilar hayotidagi kriminalistik voqea-hodisalar o‘sha davr detektiv asarlari yozuvchilari tomonidan yoritib beriladi. Detektiv asarlarni otasi deb tan olingan amerikalik Edgar Allan Po “Morg ko‘chasidagi qotillik” detektiv asari kitobxonlar orasida iliq qarshi olinganidan so‘ng, keyingi detektiv asarini Nyu-Yorkdagi Graham’s Magazine jurnali muharririga chop etish taklifini quyidagicha kiritadi: “Ehtimol, siz mening “Morg ko‘chasidagi qotillik” nomli hikoyamni ko‘rgandirsiz – bu hikoya dastlab 1841-yil aprelida Graham’s Magazine jurnalida chop etilgan edi. Uning asosiy mavzusi – qotilni aniqlashdagi zukkolikni qo‘llash edi. Men hozir shunga o‘xshash bir maqolani yozib tugatdim, unga “Mari Roje siri” – “Morg ko‘chasidagi qotillik”ning davomchisi degan nom qo‘yaman. Hikoya yaqinda Nyu-Yorkda katta shov-shuvga sabab bo‘lgan Meri Sesiliya Rojerning o‘ldirilish voqearasiga asoslangan. Biroq men bu hikoyani adabiyotda ilgari bo‘lmagan butunlay yangi uslubda yondashib yozdim. Men Parijda deyarli aynan shunday ketma-ketlikda ro‘y bergan voqealarni tasavvur qildim. Mari Roje ismli yosh bir tikuvchi qiz aynan Meri Rojer bilan bir xil sharoitda o‘ldirilgan. Shunday qilib, go‘yoki Dyupen (ya‘ni “Morg ko‘chasidagi qotillik” qahramoni) Marining o‘ldirilishi sirini qanday ochganini

⁴⁸ Fəxriyyə Cavanşir qizi Rəhimova. Çağdaş amerikan detektiv janrının ədəbi-bədii xüsusiyyətləri (Dən Braun yaradıcılığı əsasında). Filologiya üzrə fəlsəfə doktoru elmi dərəcəsi almaq üçün təqdim edilmiş dissertasiyanın avtoreferatı. Bakı – 2018. 3-bet

⁴⁹ UDC 811.111

DOI <https://doi.org/10.32782/folium/2023.2.3> The English detective novel: historical and theoretical aspect by Huliak T. M.

ko'rsatayotganday bo'lib, men aslida Nyu-Yorkdagi fojiani juda chuqur va qat'iy tahlil qilganman. Hech bir jihat e'tibordan chetda qolmagan. Men matbuotda aytilgan barcha fikrlar va mulohazalarni birma-bir ko'rib chiqqanman va shuni ko'rsatamanki: bu mavzu hali hech kim tomonidan jiddiy o'rganilmagan. Aslida, men nafaqat keng tarqalgan qarash – ya'ni bu qiz o'ziga to'g'ri kelmaydigan bir to'da jinoyatchilar qurboni bo'lgan – noto'g'riligini isbotlaganman, balki haqiqiy qotilni ham ko'rsatganman. Bu esa tergovga yangidan kuch berishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, mening asosiy maqsadim – tez orada bundan voqif bo'lasiz – aynan shunga o'xshash holatlarda tergovni qanday asosiy tamoyillar boshqarishi kerakligini tahlil qilishdir. Mavzuning o'ziga xosligi sababli, bu maqola e'tibor uyg'otishiga ishonchim komil va shu sababli menga siz uni Mammoth Notion jurnalining navbatdagi soni uchun sotib olishga qiziqishingiz mumkin bo'lib tuyuldi.⁵⁰

Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi dalil o'sha asrda jinoyatlar sodir etilishining yangicha to'lqini va bu haqida ommani xabardor qilishning samarali usuli paydo bo'ldi. Omma atrofida sodir bo'layotgan hodisalarga befarq emasligi va borgan sari nimalar sodir bo'layotganini bilishga oshiqishi detektiv janrini ham o'z osmonida yangi yulduz tug'ilishiga zamin yaratdi. Allan Po birinchi detektiv asarimga xalq qiziqdi yoki kitobxon yaxshi kutib oldi, bu hali adabiyotda kuzatilmagan yangi bir usul deb ta'kidlashi ham bizning fikrlarimizni qanchalik to'g'ri ekanidan dalolat beradi. Odamlar hamisha yangilikka o'ch bo'lishgan.

Edgar Allan Po aqlga tayanib, induksiya orqali jinoyatni fosh qilgan, u aqlni ulug'lagan. Qandaydir mistik yoki ilohiy ko'rinmas kuchlarga ishonmagan. U analitik tahlil orqali o'z asarlarida jinoyatni fosh qilishga uringan. O'zining "Morg ko'chasidagi qotillik" asarida ham mutlaqo fantastik ko'ringan aqlbovar qilmas qotillikni fikrlash orqali oydinlashtirgan. "Morg ko'chasidagi qotillik" juda sirli tarzda ro'y bergani militsiya xodimlarini boshi berk ko'chaga olib kirib qo'yadi va yordamga Ogyust Dyupen keladi; shaxsiy qiziqish va teran aqli bilan jinoyat izlarini o'rgana boshlaydi. Uning yonida doimo voqelikni so'zlab beruvchi hamrohi turadi, xuddiki kitobxon uni kuzatib yurgandek, kitobxonga qorong'i bo'lgan vaziyatlarni yoki tushunchalarni yuzaga sizdirib chiqarayotgandek tasavvur uyg'otadi. Edgar Po vaqtini ko'plab kitoblar o'qib o'tkazgani tabiiy, uning asarlarda bunga qayta va qayta ishora qiladi. "Morg ko'chasidagi qotillik"da stereotomiya, Epikur va Origen yulduzi haqida bahs yuritadi. U badiiy adabiyotni ilmiylashtiradi. Yu. V. Kovalyov shunday deydi: "Edgar Po qahramonning intellektual haqida shunchaki gapirmaydi, balki uni tafsilotlari bilan ko'rsatadi, tafakkur jarayoni, uning tamoyillari va mantiqini ochib beradi. Aynan shu yerda ratsionatsiyalar asosiy harakati, uning ichki dinamizmi jamlangan. Po detektiv hikoyalarining pafosiga kelsak, bu faqat sirni ochishda emas. Muammoning zo'r hal etilishi aqlning go'zalligi va ulkan imkoniyatlarni, "tushuntirib bo'lmaydigan" anarxiy dunyo ustidan g'alabasini namoyon etadi. Poning detektiv hikoyalari – bu intellekt madhidir⁵¹."

Bundan tashqari adabiyotni ommaga yetkazishning tez va arzon usulining paydo

⁵⁰ The first detective. Three stories with the introduction by Sasha Newborn, Santa Barbara. Bandanna Books. 2000. pp. 7-8

⁵¹ Ковалов Ю. В. Эдгар Аллан По: Новеллист и поэт. Л.: Худож. лит., 1984. С. 221

bo'lishi ham detektiv janrni adabiyot sahnida jon saqlab qolishiga ham sababchi bo'ldi. Yozuvchilar yozgan asarlar endi insonlarga kitob tarzida emas, balki gazeta orqali yetkazib berila boshlandi. Gazeta arzon, deyarli har bir kishining uni sotib olishda qurbi yetadi. Oybekning "Navoiy" asarida Alisher otasi olib bergan kitobni ikkita qo'chqorning puliga xarid qilganini aytib o'tadi. Bu omil ham detektiv janrini kitobxonlar ommasiga kirib borishiga zamin yaratdi. O'sha davrda gazetalar xalq bilan muloqot qilishning eng oson usuliga aylangan. Allan Po va uning ingliz hamkasblari Konan Doyl va Charlz Dikpenslar o'z asarlarini hikoya tarzida gazetada e'lon qilganlar. Agar kitobxonlarga bu hikoya yoqib, yana yangi asar orzusida yurishsa, ular gazetaning keyingi sonida asarni davom ettirishkan. Allan Poning "Ogyust Dyupen ishtirokidagi uch hikoya" va Konan Doylning "Sherlok Xolms va Doktor Vatson sarguzashtlari" parcha-parcha bo'lib gazetalarda chop ettirishkan. Bu asarlarning seriya bo'lib shakllanganligi ham, bugungi kunda ularning sochma tarzda bir kitob holida keltirilganligi ham mana shu sababdandir.

Detektiv janrining paydo bo'lishi XIX asrning 1840-yillaridagi madaniy muhit, xususan pozitivizm falsafasi bilan chambarchas bog'liq. Aynan detektiv adabiyot sahifalarida induktiv metod⁵²ga bo'lgan ishonch ifoda etilgan. Bu metod hayot hodisalarini faqat tajribaviy asosda tekshirib ko'riladigan taxminlar orqali tushunish mumkinligini ilgari suradi. Bundan tashqari, pozitivizm ilk bor jamiyatni – jinoyat, ijtimoiy buzqlik va yirik shaharlardagi urbanizatsiya bilan bog'liq muammolarni – ilmiy asosda o'rganishni maqsad qilgan. Bu sharoitda jamiyatdagi har qanday buzilish, aqliy asos bilan tiklanishi mumkin edi⁵³.

Detektiv janri bir makonda qotib qolmadi, u geografik chiziqlarni kesib o'tdi. U Amerikada tug'ilib, Angliyada mustahkam o'rinishib oldi. Albatta, bunda Edgar Poning ta'siri juda muhim o'rin tutadi. Artur Konan Doyl, o'zi yaratgan badiiy qahramon izquvar Sherlok Xolms va Doktor Vatson obrazlari bilan olamga tanilgan va o'sha davr ingliz adabiyoti uchun muhim burilish yasagan. Sherlok Xolms obrazi 4 ta roman va 56 ta hikoyadan o'rin egallaydi. Artur Konan Doyl 1859-yil 22-mayda Buyuk Britaniyaning Edinburg shahrida dunyoga keladi; u nafaqat yozuvchi, balki mutaxassisligiga ko'ra shifokor ham edi. Sherlok Xolms prototipi uning ustozlari bo'lish ehtimolligi juda yuqoridir.

1887-yilda "Qizil rangdagi tadqiqot" (A Study in Scarlet) qissasi chop etiladi va unda Sherlok Xolms ilk bor sahnaga chiqadi. Bu asar o'zbek tiliga O'. Muhammadsobirov tomonidan "Qizil hujjat" nomi bilan 2025-yilda tarjima qilingan. 1888-yilda esa bu asar alohida kitob sifatida nashr qilinadi, u Konan Doylning otasi – Charlz Doyl tomonidan chizilgan rasmlar bilan bezatiladi. Yozuvchi o'zi tan olganidek, u Edgar Po va Emil Gobario ijodidan ilhomlangan. Shu tarzda uning ilk detektiv asari dunyoga keladi⁵⁴.

⁵² **Induktiv metod** - dalildan uning sababiga qarab xulosa qilish.

⁵³ Per approfondire si veda ALESSANDRO PERISSINOTTO, La società dell'indagine: riflessioni sopra il successo del poliziesco, Milano, Bompiani, 2008, pp. 7-9 (Batafsil ma'lumot uchun qarang: ALESSANDRO PERISSINOTTO, Tergov jamiyati: detektiv janrining muvaffaqiyati haqida mulohazalar, Milano, Bompiani, 2008, 7-9-betlar.)

⁵⁴ М. А. Жиркова. Детектив: История возникновения и развития жанра. Часть 1. Зарубежный детектив. Учебное пособие. с.33.

XULOSA

Detektiv janr – tabiiy holatda, beixtiyor dunyoga keldi. Detektiv janrda nafaqat jinoyat, balki inson ongining mo'jizasi, aqlning go'zalligi madh qilinadi. Detektiv janr – adabiyot bilan ilmning qo'shilmasidir.

Detektiv janrning adabiyot sifatida kirib kelishiga bir qator omillar turtki bo'ldi: sud va huquq tizimining tartiblashgani, eski tarkibning bekor qilingani, qidiruv yoki tergov uslublarining zamonaviyligi (barmoq izidan, dalillar va guvohlardan foydalanish), huquq-tartibot organlarining faoliyat yuritishi, xususiy sektorlarning ishga tushishi. Angliyada Bow Street Runner (1748-yilda Genri Filding tomonidan tashkil etilgan) va 1829-yilda tashkil etilgan Metropolitan Police (uning tergov bo'limi - mashhur Scotland Yard) shu yo'nalishda muhim rol o'ynagan. Fransiyada 1812-yilda Fransua Vidok tomonidan Brigade de Surete tashkil etilgan, AQSHda esa 1850-yildan Pinkerton xususiy tergov agentligi faoliyat yuritish boshlagan⁵⁵. Bir so'z bilan aytganda ilm fandagi yangiliklar yangi – eng yosh adabiyot turining tug'ilishiga sabab bo'ldi.

Adabiyot gulshanida detektiv janrining paydo bo'lishiga bir qator omillar turtki bo'lganligini hisobga olsak, ulardagi yetakchi omil – kitobxonlarning iliq qarshi olganligidir. Detektiv janrning istiqboli o'quvchilarning talabiga binoan yuksalganini ham inobatga olish lozim. Qiziqarli jihati shundaki, Konan Doyl dastlab faqat olti mustaqil hikoya yozishni rejalashtirgan edi, ammo ommaviy talab va o'quvchilarning qahramonga qiziqishi uni yozishni davom ettirishga undadi va bu detektiv hikoyaning qisqa shaklini mustahkamladi. Lekin, boshqa adabiy janrlarning ham yaralishida kitobxonlarning o'rni beqiyos bo'lgani shubhasiz, chunki asar yozilishi uchun, avvalo uni o'qiydigan kichik bo'lsa-da audotoriya kerak. Lotin tilida bugun hech kim so'zlashmayotganligi uchun ham u o'lik tildir.

Shunga qaramay, faqatgina kitobxonlarning yuzaki xohishlari bilan detektiv janri vujudga keldi desak, ushbu janrda qalam tebratgan ustoz yozuvchilarga hurmatsizlik va beandishalik qilgan bo'lamiz. Dastlab, katta yozuvchilar detektiv janrini ko'ngilochar, past ahamiyatli adabiyot turi deb, unda ijoda qilishni istamaganlar. Vaholanki, bugun kunda eng katta yozuvchilar ushbu janrda faoliyat olib borayotirlar. Ulardan bor yo'g'i ikki ijodkorni keltirish ham so'zimiz isboti bo'ladi: Jeyms Paterson va Den Braun. Bu ikkala ijodkor ham amerikalik, detektiv janrining zamonaviy ijodkorlari. Pattersonning kitoblari 425 million nusxadan ko'proq sotilgan va u bir million elektron kitob sotgan birinchi odam edi. Patterson 2016-yilda 95 million dollar daromadi bilan uchinchi yil ketma-ket Forbes jurnalining eng ko'p maosh oluvchi mualliflar ro'yxatida birinchi o'rinni egalladi. Uning o'n yillikdagi umumiy daromadi 700 million dollarga baholangan⁵⁶. Uning o'zbek tiliga asaxiy tashabbusi bilan chop etilgan "Qo'lingdan kelsa, mahv et" asarida ham quyidagicha izoh keltirilgan: "Jeyms Patterson tanqidchilar tomonidan dunyodagi eng katta

⁵⁵ Narrare il crimine: gli sviluppi del poliziesco anglofono e germanofono. Maurizio Basili. Università degli Studi "G. D'Annunzio" Chieti-Pescara (maurizio.basili@unich.it) (8-9-betlar)

⁵⁶ https://en.wikipedia.org/wiki/James_Patterson

bestsellerlar fabrikasi deb atalishi bejiz emas. Jeyms Patterson asarlarining «New York Times» bestselleriga aylanishi bo'yicha Ginnes rekordlar kitobiga kiritilgan yagona yozuvchidir. Uning 1977-yildan buyon yozgan asarlari 300 milliondan ziyod nusxada sotilib, o'ziga xos rekord o'rnatgan.”

Den Braunni detektiv olamning zamonaviy ijodkori deyish mumkin. U g'oyat sermahsul ijodkor; u o'z asarlarida san'at va fitna nazariyalariga va kriptografiyaga ko'proq ahamiyat beradi va voqelikni shular atrofiga quradi. Uning o'zbek tiliga tarjima qilingan “Da Vinchi siri”, “Raqamli qal'a”, “Ibtido” va “Farishtalar va iblislar” asarlari o'zbek kitobxonlariga ma'lum va mashhurdir. Asaxiy tashabbusi bilan chop etilgan uning “Raqamli qal'a” asarida ham uning asarlari qay darajada shuhrat topayotganini ilg'ash mumkin: “Bu kitob zamonaviy jahon adabiyotining eng mashhur yozuvchilaridan biri, *butun dunyo bo'ylab 300 milliondan ortiq nusxada* kitob sotgan Den Braunning “Raqamli qal'a” romanidir. Ushbu roman Den Braunning ilk romani bo'lib, asar shu zahoti Den Braunga butun dunyoga mashhurlikni olib keladi. Bugungi kunda Den Braun “New York Times” nashri tomonidan bir necha bor **dunyoning eng mashhur 100 insoni** sifatida e'tirof etilgan va uning asarlari doim dunyodagi yangi bestsellerlar ro'yxatida eng birinchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Ayni vaqtda yillik 156 million AQSH dollari daromad bilan, Den Braun jahonda eng ko'p daromad qiladigan yozuvchilardan biri ham hisoblanadi.”

Kitobxonlar orasida detektiv janrining ommalashuvi faqatgina uning soddaligida yotmaydi; detektiv janr axloqdan dars beradi. Dars shunchalik jozibadorki, o'quvchini o'ziga chorlaydi. Detektiv janr axloqsizlikni qoralaydi va uning oqibatini chuqur chizgilar bilan tushuntiradi. Koinot ham betartiblikdan tartibga kelganidek, adolat ham o'z yo'lidan og'sa-da, ertami-kechmi baribir qaror topadi. Ya'niki, jinoyat jazosiz qolmaydi. Detektiv janrning ham mohiyati shunda. U odamlarga jinoyat qilmanglar demoqchi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Artur Konan Doyle. Qizil hujjat. [Matn]/Artur Konan Doyle; tarjimon O'. Muhammadsobir. – Toshkent: Trust and support, 2025.
2. Corso di Laurea Magistrale in Filologia e letteratura italiana. Tesi di Laura. Da Holmes a Montalbano Evoluzione e direzione del genere poliziesco. Laureanda Franchesca Tasca. Anna Academico 2021/2022.
3. Faxriyya Cavanşir qizi Rəhimova. Çağdaş amerikan detektiv janrının ədəbi-bədii xüsusiyyətləri (Dən Braun yaradıcılığı əsasında). Filologiya üzrə fəlsəfə doktoru elmi dərəcəsi almaq üçün təqdim edilmiş dissertasiyanın avtoreferatı. Bakı – 2018.
4. Narrare il crimine: gli sviluppi del poliziesco anglofono e germanofono. Maurizio Basili. Università degli Studi “G. D'Annunzio” Chieti-Pescara (maurizio.basili@unich.it)
5. Sulaymonov Shodmon Sultonovich O'zbek detektiv nasri: Genezisi va tabiati. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Buxoro – 2002.

6. Michaela Veselska. History, Development and Characteristics of British Detective Novel and the Significant Representatives of the Genre. Bachelor Thesis. Olomouc 2014
 7. Skirbekk, G., Gilye, N. Falsafa tarixi. Oliy o‘quv yurt uchun o‘quv qo‘ll./ Rus tilidan tarjima.: V. Kuznetsov. – T.: «Sharq», 2002. – 720 b.
 8. Vilyam Shekspir. Hamlet. Ruschadan Maqsud Shayxzoda tarjimasi. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1983.
 9. М. А. Жиркова. Детектив: История возникновения и развития жанра. Часть 1. Зарубежный детектив. Учебное пособие.
 10. Ковалов Ю. В. Эдгар Аллан По: Новеллист и поэт. Л.: Худож. лит., 1984.
 11. The first detective. Three stories with the introduction by Sasha Newborn, Santa Barbara. Bandanna Books. 2000.
 12. The Murders in the Rue Morgue and other stories by Edgar Allan Poe.
 13. UDC 811.111
- DOI <https://doi.org/10.32782/folium/2023.2.3> The English detective novel: historical and theoretical aspect by Huliak T. M.
14. https://en.wikipedia.org/wiki/Arthur_Conan_Doyle
 15. https://en.wikipedia.org/wiki/James_Patterson